

**PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASHDA ISHTIROK
ETADIGAN ISHCHI ORGANLARNING KONSTRUKTIV PARAMETRLARI
VA REJIMLARINI ULARNING ISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI**

Muzaffar Gulomjanovich Djurayev

Termiz davlat universiteti

muzaffar_2410@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mahalliy amaliyotda paxta xom ashicosini titish va mayda iflosliklarning aralashmalari, ya'ni barglar va ularning parchalangan qisimlaridan tozalash shu bilan birga diametri 4 mm bo'lgan uzaygan shakldagi hamda paxtani ulyuk va ulyukni ajraqtib olish va ulardan tozalash uchun kolosnikli panjaralar yoki teshikli to'rlar bilan bilan birlashtirilganda ishlaydigan qoziqchali-plankasimon barabandan foydalilaniladi. Ushbu paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalarining asosiy ishchi organlari va ularning ishlash jarayonlari, uning asosiy kamchiliklari va uni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ulyuk, kolosnikli panjara, qoziqchali-plankali paraban, cho'tkalar, disk, val, UXK, 1XK, RX

ABSTRACT

In this article, in domestic practice, cotton raw materials are cleaned from a mixture of small impurities, that is, leaves and their broken parts, having an elongated shape with a diameter of 4 mm, and pile, working together with colossal gratings or perforated meshes. To separate and clean cotton wool from lint and fluff, a flat drum is used. The main working parts of this cotton ginning equipment and the processes of their operation, the main shortcomings and proposals for eliminating them are presented.

Keywords: ulyuk, colossal lattice, drum with pegs, brush, disk, shaft, UXK, 1XK, RX

KIRISH


Paxtani titish va mayda iflosliklar va ulyukdan tozalash uchun kolosnikli panjara yoki teshikli to'rlar bilan birlashtirilganda ishlaydigan qoziqchali-plankali barabanlar, paxtani yirik va mayda iflosliklar va ulyukdan tozalash uchun cho'tkalar yoki kolosniklar bilan uyg'unlikda ishlovchi arrali silindrlaridan foydalilaniladi.

Jahon paxta tozalash sanoatida yuqori samaradorlikka ega texnologik jarayonlarga asoslangan paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash tizimlarini yaratish yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu borada AQSh, Avstraliya, Xitoy, Hindiston, O‘zbekiston va boshqa davlatlarda ma’lum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, paxta tozalash sanoati sohasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. «Paxta xomashyosini dastlabki ishlashda tolaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish va resurstejamkor texnologik uskunalardan foydalanish natijasida tola tannarxi kamayishiga erishilmoqda»

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Paxta xom ashyosini iflosliklardan tozalash uskunalarini quyidagi asosiy ishchi organlardan tashkil topgan: paxta xom ashyosini titish va mayda iflosliklar va ulyukdan tozalash uchun kolosnikli panjara yoki teshikli to‘rlar bilan birgalikda ishlaydigan qoziqchali-plankali barabanlar, paxta xom ashyosini yirik va mayda iflosliklar va ulyukdan tozalash uchun cho’tkalar yoki kolosniklar bilan uyg‘unlikda ishlovchi arrali silindrлaridan foydalaniladi. [1]

Zamonaviy qoziqchali-plankasimon barabanlar (1-rasm) beshta diskli 2 val 1 dan tashkil topib, ularga aylanasi bo‘ylab boltlar 3 bilan umumiy soni 300 ta bo‘lgan qoplamasiga payvandalangan qoziqchalar 5 dan tashkil topgan to‘rtta qoplama mahkamlanadi. Qoplamaarning cheti radial egilgan va qo‘shti qoplamar bir-biriga boltlar bilan gaykalar 6 yordamida birlashtiriladi. Qoplamaarning disklari mahkamlashda qo‘llaniladigan boltlarning umumiy soni 60 ta bo‘lib, qoplamaarning bir-biriga mahkamlashda esa 52 ta gaykali boltlar ishlatiladi. [2]




1

-rasm. Qoziqchali plankasimon baraban

1-val, 2-disk (5 dona), 3-diskni qoplamaga maxkamlovchi bolt (60 dona),

4-qoplama (4 dona) 5-qoziqchalar (300 dona) 6-radial egilgan qoplamlarni bir biriga mahkamlash uchun boltlar

Qoziqchali-plankasimon barabanlarning diametri 400 mm, plankalarni hosil qiladigan qoplamlarning bukilgan qismi bo'yicha 340 mm, qoziqchalarning qoplamlardan balandligi 50 MM, plankalarning balandligi 20 MM. Qoziqchali-plankasimon barabalar 1XK tozalagichlari va UXK agregatlarida (2-rasm) qo'llanilib, ular hozirgi kunda paxta tozalash zavodlarida ekspluatatsiya qilinayotgan



paxta tozalash uchun mo'ljallangan asosiy uskunalar hisoblanadi.

2-rasm. UXK seriyali paxta tozalash moslamalarining sxemasi

1 XK va regenerator 1 RX o'rnatilgan tozalagichlar paxta xomashyosini SS-15A separatoriga yetkazib berish uchun pnevmatik quvur oqimi ulangan qoziqchali-plankasimon barabanlarning ko'p yillik ekspluatatsiyasini ko'rsatishicha, ularning asosiy kamchiligi ekspluatatsion ishonchligini pastligi va tayyorlanishini murakkabligi hamda u tomonidan paxta xom ashyosi urug'larini shikastlanishi va uning tozalash samaradorligini chegaralanganligidan iborat. Ekspluatatsion ishonchlilagini pastligi quyidagilar bilan izohlanadi. Birinchidan, qoziqchalar baraban qobig'iga faqatgina o'zining bitta kesimiga payvandlangan, buning natijasida uzoq ekspluatatsiyadan so'ng hamda yuqori namlik va ifloslanganlik darajasiga ega paxta xom ashyosini tozalashda yuzaga keladigan qoziqchalarga tushadigan kuchning oshishi, tozalagichlarning tiqilib qolishi va ularga yot jismlarning kirib qolishi tufayli qoziqchalar radial holatidan og'adi yoki qoplamasidan sinib tushadi. Buning natijasida barabanning uzatish va tozalash qobiliyati susayib, tez-tez ta'mirni va qoziqchalarni qayta payvandlanishini talab qiladi. [3] Qoziqchalarni qayta payvandlanishidan qoplama teshiklarida payvand choklarning mustahkamligi har gal kamayib boradi, oxir oqibat qoplamanı yangisiga almashtirishga ehtiyoj tug'iladi.

Ikkinchidan, qobiq qoplamarini bukilgan joyi va qoplamar va tashqi diskalar kesishmalari orasidagi kichik yoriqlar hamda qoziqchalarning sinishi tufayli yuzaga keladigan teshiklardan barabanlarning bo'shliqlariga mineral va organik changning zarralari kirib, ular to'planib barabanlar aylanishdan to'xtaganda ularning paski qismida yig'ilishi natijasida aylanish tiklanganida statik va dinamik disbalansga olib kelib, oxir oqibat podshipniklar va barbanlarning vallarini bo'yinlarini tezroq yemirilishiga sabab bo'ladi. Podshipniklar va vallarning xizmat muddatini uzaytirish uchun kapital ta'mir jarayonida barbanlarning qismlarini yechish va ularning ichki bo'shliqlarini chiqindilardan tozalash zarur bo'lib qoladi. [4] Bu kabi konstruksiyadagi barabanlarni tayyorlashning murakkabligi shundaki buning uchun maxsus tayyorlangan press-shakllarda qoplama qobiqlarini ikki marta shtampdan o'tkazishni qo'llash zaruriyati va tayanch nuqtani olish maqsadida qoziqchalarni chilangarlik ishlov berilishi hamda barbanlarni yig'ishda boltli birikmalardan foydalanimishi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA

Paxta xom ashyosini qoziqchali-plankasimon barabanlar bilan tozalash samaradorligi chigitning shikastlanishi bilan chegaralangan bo'lib, bu holat paxta xom ashyosini bir barabanning ta'siridan keyingi barabanga uzatishda qoplama qobiqlarining bukilgan joylari va asos qismlariga momiqlarni urilishi hisobiga amalga oshadi. Ushbu urilishlar kuchi va shunga mos tarzda shikastlangan chigitning miqdori barabanlarning aylanish tezligi va qo'shni barabanlarning qobiq qoplamarining shikastlaydigan elementlari orasidagi masofaga bog'liq. Shuning uchun barabanlarning aylanish tezligi "tozalash samarasi-urug'larning shikstlanganligi" optimal parametri mutanosibligi bo'yicha tanlangan bo'lib, bu yerda urug'larning shikastlanishi chegaralovchi omil hisoblanadi va u barabanlarning tezligi hamda tozalash samarasini oshirilishiga yo'l qo'yaydi. Bundan tashqari ma'lumki, to'rning uzunligini birinchi yarimdan keyin har bir baraban ostida uning aylanish yo'nalishi bo'ylab havo teshiklar orqali ichkariga havo purkalib, bu iflos aralashmalarni ajralib chiqishiga yordam beradi, to'rning uzunligini ikkinchi yarmida esa havo teshiklardan so'rib olinadi va bu iflos aralashmalarning ajralishini murakkablashtiradi.

Tashqi yet aralashmalar tolaga asosan paxta xom ashyosidan kelib tushadi sababi ular deyarli qoziqchali tozalagichlarda tutib olinmaydi, arrali tozalagichlarda va ayniqsa jinlarda ular qisman tililadi va arralarning tishlariga tifilib qoladi, bu esa ularning ishini ishonchligi va samaradorligini kamaytiradi. Mazkur muammoni yechishda barcha turdag'i

tozalagichlar va jinlarning ta'minlagichlarida tashqi yot yumshoq aralashmalarini tutib olinishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Qoziqchali-plankasimon barabanlarning pasport bo'yicha aylanish chastotasi 420 ayl/min bo'lib, bu 8.8 m/sek chiziqli tezlikka to'g'ri keladi. Ayrim paxta zavodlarida tozalanish samarasini oshirish uchun barabanlarning aylanish chastotasi 500 ayl/min gacha (10.5 m/sek) va hattoki boshlang'ich bo'lmlarida paxta xom ashvosini tezlashtirilgan holda titish uchun 600 ayl/min (12.6 m/sek) gacha ham oshirilgan. [5]

XULOSA

Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, urug'larning shikastlanishini asosiy sababi paxta xom ashvosining qoziqchalarga urilishi emas, balki uni plankalar va bo'rtgan joylarga urilishi bo'lib, u yerda qoziqchalar mahkamlanadi hamda barabanlarning qobiqlarni silindrik qismiga urilishi, ya'ni paxta xom ashysi bir qismini plankalar va bo'rtgan joylarga qarshi urilishga uchrashi va paxta xom ashvosining boshqa qismi deyarli qobiqga amalda to'g'ridan-to'g'ri urilishini oldini olib bo'lmaydi. Demak, urug'larning shikastlanganligini kamaytirish uchun qobiq konstruksiyasidan plankalar va bo'rtgan joylarini olib tashlash va imkon qadar uni barabanning atrofidan olib tashlash, ya'ni imkon qadar qoziqchalarni uzaytirishdan iborat. Shu bilan birga shikastlangan urug'larning ulushini o'sishi paxta xom ashysi momiqlarini teshikli to'rlarga urilishida sodir bo'lib, biroq bu yo'nalishda hali tadqiqotlar olib borilmagan.

Yuqorida ko'rsatilganidek, qoziqchali-plankasimon barabanlarning ekspluatatsiyasini ko'p yillik tajribasini ko'rsatishicha, uning asosiy kamchiliklari yig'ma qobiq va qoziqchalarni konsolli mahkamlanish usulini qo'llanilishidan iborat. Shuning uchun disklarga mahkamlanadigan yig'ma qobiq o'rniga payvandlangan sapfali quvurlarni qo'llanilishi va tutgichlarning barabanlari ekspluatatsiyasi tajribasini hisobga olgan holda uzun qoziqlarni rezbali mahkamlash o'rniga quvurga ikki tomonlama payvandlangan va diametal joylashgan teshiklar orqali trubaga kiritilgan qoziqlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

- Самандаров С.А., Будин Е.Ф. Результаты испытания плоских и других колосников Хлопковая промышленность 1977 № 2 стр 12-14
- Лугачев А.Е. Исследование основных элементов очистителей хлопка сырца с целью повышения качественных показателей процесса. Дисс. к.т.н., Т-1981

3. Djurayev M.G., Khakimov Sh.Sh., Ochildiyev B.B., Jurakulov E.N. Managed Technological Indicators during the Cotton Cleaning Process International Journal of Advanced Research in Science, Vol. 6, Issue 11 , November 2019
4. Ҳакимов Ш. Ш, Джураев.М.Г, Ибрагимов.А.О УХК агрегати бўлимларининг тозалаш кўрсаткичлари тадқиқи. Фарғона политехника институти илмий-техника журнал 2023 й
5. Джураев.М.Г, Пахта таркибидаги ифлос аралашмалар ва уларнинг классификацияси Golden Brain scientific Journal 16-июн 2023 102-106 б